

Valimuhammadxon



## Valimuhammad ibn Jonibek sulton

(?- 1611 yil, 27 avgust)

Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni (1605-1611). Akasi Boqimuhammadxon davrida Balx noibi (1599-1605). Boqimuhammad vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tqazilgan. Valimuhammadxon so'ng Balx hokimi bo'lgan Nadrmuhammadxon boshliq mahalliy amaldorlar Imonqulixonni Buxoro taxtiga o'tqazish uchun Valimuhammadxonga qarshi fitna uyushtirganlar. 1611 yilning bahorida Valimuhammadxon Imonquli va Nadrmuhammadxonlar bilan bo'lgan kurashda yengilgach Imomqulixon Buxoro xoni deb e'lon qilingan. Valimuhammad esa ikki o'g'lini olib Eron shohi Abbos huzuriga qochib borgan. Amirlar Boqimuhammadxonning o'g'li Imomqulixonni taxtga o'tqazganlar. Valimuhammad Abbos yordamida Movarounnahrni qaytarib olishga harakat qilgan. Tarixchi Muhammad Yusuf munshi „*Tarixi Muqimxoniy*“ asarida yozishicha, shoh Abbos Imomqulixonga qarshi kurashish uchun Valimuhammadxonga 80 ming kishilik qizilboshlilar qo'shinini bergan. Biroq Samarqand atrofidagi Bog'i Shamolda bo'lgan jang (1611 yil avgust)da Imomqulixon g'alaba qozongan, Valimuhammad asir olinib qatl etilgan.

2023-11-02 16:56:01